

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XVI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

AVGUST, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XVI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 16-son (28-avgust, 2026-yil).– 102 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 26-avgust

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XVI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

O'TKIR HOSHIMOV NASRIDA "SHAMOL" OBRAZINING BADIY TALQINI. ("SHAMOL ESAVERADI" QISSASI MISOLIDA)

Jo'raboyeva Saboxon Anvarxanovna

Namangan davlat universiteti

O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD

Tel: +939495122

Email: saboxon 1978@gmail.com

To'raxanova Halima Raxmatilla qizi

University of Business and Science nodavlat oliy ta'lim muassasasi

O'zbek tili yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Maqolada O'tkir Hoshimovning adabiy me'rosida alohida ahamiyatga ega bo'lgan "Shamol esaveradi" qissasidagi shamol obrazining yozuvchi talqinidagi ifodalari tahlil qilinadi. Insonlar taqdiri va murakkabligi zo'r mahorat bilan tasvirlanganligi qissadan olingan parchalar bilan dalillangan. Sof muhabbatga rahna solgan vijdonsizlik va xiyonatning qoralangani, uning g'ayrinsoniy mohiyatiga urg'u berilgan. Ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash shamol obrazi orqali ifodalangani dalillar bilan qiyoslangan.

Kalit so'zlar: Insonparvarlik, muhabbat mojarolari, qissa, hayotiy manzaralar, janriy xilma-xillik, kompozitsiya, sujet, shamol obrazi, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash.

THE ARTISTIC INTERPRETATION OF THE IMAGE OF "WIND" IN O'TKIR HOSHIMOV'S PROSE (BASED ON THE NOVELLA "SHAMOL ESAVERADI")

Jo'raboyeva Saboxon Anvarkhanovna

Namangan State University

Senior Lecturer, Department of Uzbek Literature, PhD

Turakhanova Halima Rakhmatilla qizi

University of Business and Science non-state higher educational institution

3rd year student of the Uzbek language department

Annotation. This article analyzes the artistic representations of the image of the wind in O'tkir Hoshimov's novella "Shamol esaveradi", which holds a significant place in the writer's literary heritage. The author's skillful depiction of human destinies and the complexities of human life is substantiated through excerpts from the novella. The study emphasizes the condemnation of unscrupulousness and betrayal that undermine pure love, highlighting their inhumane nature. The struggle between good and evil, expressed through the image of the wind, is examined and supported through comparative analysis.

Keywords: humanism, conflicts of love, novella, scenes of life, genre diversity, composition, plot, image of the wind, struggle between good and evil.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i16/n12>

Kirish

O'zbek adabiyoti o'zining boy merosi bilan jahon tamaddunida boshqalardan kam bo'lmagan mavqe'ga egaligi kishini quvontiradi. Ana shu bebaho so'z san'ati durdonalarini bitgan adiblarning hayot yo'li, ijodiy faoliyati qanday kechganligini bilish uchun turli manbalarga murojaat qilinadi. Adabiyotning o'lmasligini ta'minlovchi ikkita qudratli omil bor.

Ularning biri adabiyotning g'oyat buyuk tarbiyaviy-ma'rifiy ahamiyati bo'lsa, ikkinchisi, uning insonlarga zavq - shavq berish xususiyatiga egaligidir. Badiiy adabiyot inson sezimlariga, his-tuyg'ulariga ta'sir o'tkazadi, uning olam va odam haqidagi tasavvurlarini boyitadi, ko'nglini poklikka chulg'aydi, ezgu ishlarga kamarbasta qiladi. Millat, yurt oldidagi javobgarlik hissini tuyish, burch va sadoqat tuyg'ulariga sodiq bo'lishga o'rgatadi. Badiiy asar bani basharni nozik didli, yuksak farosatli, ma'naviy yetuk bo'lishini xohlab, voqealar rivojida inja tuyg'ularni uyg'ota olishni ko'zda tutadi. Yozuvchi nasrda ijod etar ekan hikoya, qissa yoki romanida ayni shu jihatlariga e'tibor qaratadi. Jumladan, O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimovning "Shamol esaveradi" qissasi o'z davrining ijtimoiy -axloqiy muammolarini, insoniy munosabatlar va vijdon pokligini namoyon etuvchi hayotiy kuzatishlarga asoslangan asarlardan asar ekanligi bilan ajralib turadi. Qissa "Shamol esaveradi" deb nomlanib, "shamol" obrazi ramziy ma'noda inson irodasini sinash yo'lidagi vaziyatlarni, hayotdagi turli kelishmovchiliklarni, nizolar va qiyinchiliklarini ifodalab keluvchi badiiy detal sifatida talqinlanadi. Negaki, shamol tabiat hodisasi sifatida bulutlarni haydovchi, yomg'ir chaqiruvchi fiziologik hodisadir. Ammo xalq og'zaki ijodida shamol qahramonning dardini eltuvchi elchi, tezkor xabar yetkazuvchi vosita, sirli kuch va ramziy ma'noga ega epik timsol sifatida gavdalanadi. U ko'pincha oshiqning iltimosiga ko'ra yor tomon xabar olib boradi yoki voqealar rivojida tezkor o'zgarish yasaydi. Oshiq nidosi bo'lib, bosh qahramon (masalan, Alpomish, Kuntug'mish yoki Ravshan) musofirlikda yoki yiroq yurtda qolganda o'z sevgilisi, ota-onasi yoki el-yurtini sog'inib shamolga murojaat qiladi. Jumladan, Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida Farhod umri nihoyasida bodi Saboga xitob qilib, onasidan va yaqinlaridan uzr so'raydi. Shamol oshiqning ma'shuqasiga sog'inchli salom yetkazuvchi maktub vazifasini ham o'taydi. Jumladan, Alisher Navoiyning:

Ey sabo, holim borib sarvi xiromonimg'a ayt,

Yig'larimni shiddatin gulbargi xandonimg'a ayt[1].

Shamol chang-to'zon, tartibsizlik bilan uchib kelsa-da, uning ortidan g'uborlarni ketkizguvchi yomg'ir ham yetib keladi. Qadimiy afsonaviy qarashlar ta'sirida shamol yengil nafasi bilan hayot baxsh etuvchi yoki g'azablanganda hamma narsani sovurib ketuvchi ilohiy qudrat sifatida namoyon bo'ladi. Zulmat qorong'uligi tugab, atrof nurga to'ladi va ezgulikka doxil bo'lishi nazarda tutiladi. Ammo ayrim ilmiy adabiyotlarda shamol obrazi quyidagicha ta'riflanadi: "shamol timsoli havo ramzi bilan bog'langan. Chunki u havoning faol, jo'shqin jihatidir. Shamol hayotbaxsh nafas, jon bilan aloqadorligi tufayli yaratuvchi unsur hisoblanadi." [5] Lekin mumtoz adabiyotimizda tasavvufiy xarakterga ega bo'lgan bodi sabo obrazi tasavvufiy fayz va g'ayb olamidan elchi mazmunida baytlarda qo'llangan. Alisher Navoiyning "Ey sabo, holim borib, sarvi xiromonimg'a ayt" deya murojaatida oshiqning iztiroblari, sog'inchdan ezilgan mahzun kayfiyati va ma'shuqaning visolidan umidvorligi aks etadi. Ammo shamol obrazining zamonaviy adabiyotimizda havoyi hislar, yengil-yelpi hayot tarzi mazmunini ifoda etuvchi xususiyatga egaligini ko'rsatuvchi asarlar yaratilgan. Ulardagi psixologizm qahramonning tushkin holatini ifodalab, hayot uchun kurashish kerakligi urg'ulangan qissalar, romanlar mavjud. Jumladan, yozuvchi O'tkir Hoshimovning "Shamol esaveradi" qissasi obrazlar xarakteridagi isyonlar, ruhiyatidagi iztiroblari, insonning hayotdagi aniq maqsadi haqidagi mantiqiy xulosalar aks etgan asar hisoblanadi. Qissa aynan bahor faslining ta'rifidan boshlanadi: ... *Sezganmisiz... erta bahor paytlari, so'nggi qorlar erib bitgach, yer yuzida qadimiy, sokin jonlanish boshlanadi. Ko'pchib yotgan dalalar uzra dilni*

orziqtiruvchi allanechuk qadrdon bir is tuproq hidi parvoz etadi. Iliq orombaxsh shabada esib, daraxtlarning sochidan tortqilab uyg'ota boshlaydi[6].

Yozuvchi asarning kompozitsiyasida shamolning tabiat hodidasi sifatidagi asosiy vazifasini ta'kidlar ekan, uning yaxshi ishlarga elchiligi, daraxtlarni yana qaytadan tirilishga, hayotni sevishtga va o'zidan nishon qoldirajagini eslatishga harakat qiladi. Yoki masalaning ikkinchi tafakkur qiladigan jihati ham bor. Ya'ni ogohlantiruvchi belgi sifatida to'satdan tushgan qattiq shamol, bo'ron yoki dovul yaqinlashib kelayotgan xavfni, yovuz kuchlarning hujumini yoki kutilmagan o'zgarishlarni oldindan sezdiruvchi vazifasigam mavjudligiga ishora qilgan. Qissa qahramonlarining hayot yo'llaridagi ogohlantirish: muhabbatdan, nopoklikdan va manmanlikdan belgi beruvchi xislat sifatida ham izohlangan. Yozuvchi xayolida Gavharni umr yo'llari Tal'at va Mansur taqdirilarida birlashishi ularni muhabbatning shafqatsiz sinovlaridan o'tishi kabi voqealari davr, zamon shamoli emas, aksincha, yengil-yelpi havoyi his-tuyg'ulardagi qiyinchiliklar misolida tasvirlanadi. O'tkinchi hislar go'yo shamoldek tez kelib, atrofni vayron qilib ketishi, hatto inson o'limiga yoki halokatiga sabab bo'lishi asarning aynan shunday nomlanishiga sabab bo'lgan deb o'ylaymiz. E'tibor bering, Tal'at Gavharni ilk marotaba ko'rgandayoq uni o'z nafi uchun munosib qurbon bo'lajagini tasmollaydi. Chunki Tal'at badavlat odamning farzandi, onasining erkasi, shunday bo'lsa-da, oz-moz qiyinchilik ko'rgan yigit edi. Zulfiyaning unga bo'lgan munosabati uni sevgi va muhabbat haqidagi qarashlarini o'zgartirib yubordi. Shuning uchun u Gavharni qo'lga tushgan o'lja sifatida o'rgandi. *Tal'atning beixtiyor boshi g'uvillay boshladi. Qandaydir jo'shqin, odamning yurak -yuragini titratib yuboradigan ohang shuuriga kirdi. Shu payt ichkaridan harir ko'ylak kiygan qorasoch, qorako'z go'zal ayol chiqib keldi. Gitara sadolariga jo'r hamohang shu qadar otashin raqs ijro eta boshladiki, Tal'atning og'zi ochilib qoldi. Ertasi aytilgan paytda Zulfiya va'da qilingan joyga keldi. Zulfiya chindan ham tajribali "chavandoz" ekan. Tal'atga ko'p narsalarni o'rgatdi. Yashash qoidalarini ham. "Tal'atchik, - dedi bir kuni. - Sen xotin zotiga ishonma! Undan keyin yana bir narsani qulog'ingga ilib ol. Mening hayotiy shiorim shu. Sen o'zing aldanib qolmasliging uchun boshqalarni ham alda! O'zing xiyonatga yo'qmasliging uchun boshqalarga xiyonat qil! Bo'lmasa "lox" bo'lib oyoq ostida qolib ketasan!"*[6] Shu o'rinda asarda shamolning ayricha ma'nosi ham nazarda tutilgan. Masalan, sharqiy shamol halokat keltiruvchi, musibat yog'diruvchi deya baholangan. U yolg'on, urush, kulfatlar, shuningdek parvardigorning g'azabi ramzi sifatida izohlanadi. Demak, asardagi Tal'atning Gavhargaga bo'lgan "sevgisi" aynan shu mazmunda yozuvchi tomonidan kiritilgan. Obrazning yana bir xususiyati bor: masofani qisqartirish. Epik asarlarda vaqt va makon tushunchalari tezda oshib o'tiladi. Shamol kabi tezkor harakatlanish qahramonning qat'iyati yoki xabarning favqulodda tez yetib borishini ko'rsatadi. Asar bosh qahramonlaridan biri hisoblangan Mansur obrazi Tal'atga qarama-qarshi o'laroq halolligi, mehribonligi, sevgiga sadoqatli insonligi bilan sujet tizimida boshqa obrazlardan ajralib turadi. Masalan, Mansurning onasi vafot etgandagi holat quyidagicha talqinlanadi: *Hayotning hammasi tush ekan. Shuning uchun ayasining kun sayin so'lib borayotganinni sezmay qolibdi, mana bugun birdan uyg'ondi- yu, suyangan tog'ini yo'qotib qo'ydi*[6]. Onasi vafotidan keyin Mansur bir muncha vaqt o'ziga kela olmaydi. Ruhiy iztiroblardan faqat Gavhargina sof va samimiy sevgisi bilan uni yana odamlar orasiga qaytaradi. Gavhar Mansur uchun hatto Toshkentga ham keladi. Qalbidan turli kechinmalar o'tsa-da, muhabbatini munosib himoya qiladi. Mansur ham bunga javoban munofiq, razil Tal'atni erkakchasi kurashga chaqiradi:

–Sen erkakmisan? Bo'pti erkakchasiga gaplashamiz! – Mansur kutilmaganda g'ijimlanib ketgan eski plashining cho'ntagidan pichoq chiqardi. Tal'at bunday bo'lishini kutmagan edi. Beixtiyor orqaga chekindi[6]. Qissa so'ngida Mansur Tal'atga haqiqiy inson,mard yigit qanday bo'lishini isbotlaydi. Kurashni yoki Gavhardan kechirim so'rashdek yo'lni talab qiladi. Qo'rqqoq Tal'at ikkinchi imkoniyatni tanlaydi va qizdan kechirim so'raydi.

Demak, hayotdagi har qanday bo'ronlar,dovullar o'zining qo'rqqinchli ovozi va tal-to'pi bilan kelsa-da, soflik.hallollik,asosiysi, insoniylik va adolat doim g'olib bo'lishi asarning butun sujetiga singdirilgan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами 10 жилдлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги матбаа ижодий уйи, 2011. –Ж. 1: Ғаройиб ус-сиғар. – 804 б.
2. Hoshimov O'. Shamollar esaveradi. – Тошкент: Nurli Dunyo. 2023. – Б. 1.
3. Komilov N. Tasavvuf. — Toshkent: Movarounnahr, 2009. — 384 b.
4. Рустамов Э. Узбекская поэзия в первой половине XV века. — М.: Наука, 1963. — 252 с.
5. Mingboyeva D. Timsollar tilsimi. – Тошкент: Adabiyot. 2014. – Б. 147.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XVI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, avgust

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.

XVI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.

2-jild, 16-son (28-avgust, 2026-yil). – 102 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 26-avgust.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.